



TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ
XO'JALIGINI MEXANIZATSIYALASH
MUHANDISLARI INSTITUTI



FAN: | **EKOLOGIYA VA ATROF MUHIT
MUHOFAZASI**

MAVZU

01

**O'zbekistonni tabiati va iqlimi bilan
tanishish va ekologik holatini
baholash**



Yo'ldosheva Charos Abbasovna



“Ekologiya va suv resurslarini
boshqarish” kafedrası



Reja:

- 1. Geografik iqlim sharoitlari.*
- 2. Suv resurslari*
- 3. Hududni ekologik rayonlashtirish*

O'ZBEKISTON IQLIMI

O'zbekiston uchta asosiy landshaftlari mavjud – cho'llar va quruq dashtlar, tog' yonbag'irlari va tog'larga bo'linadi. Cho'l va quruq dasht hududlarining deyarli barchasi, shu jumladan qizilqum sahrosi, Ustyurt platosi, Qarshi va Dalvarzin cho'llari dengiz sathidan 400 metr balandlikdan va undan pastda yotadi Tyan-Shan va Hisor tog' tizmalarining atrofidagi tog' yonbag'ir zonalari dengiz sathidan 300-1000 metrlik yuqori cho'qqilar bilan cheklanadi.

O'zbekistonning va butun Markaziy Osiyoning eng yirik daryolari – Amudaryo (1415 km) va Sirdaryodir (2122 km). Bu daryolar keng, yassi vodiylarni vujudga keltirgan bo'lib, ulardan sug'orma dehqonchilikda jadal foydalaniladi.

O'SIMLIK OLAMI

O'zbekistonning o'simlik olami 4500 tadan ortiq o'simlik turlarini o'z ichiga oladi. O'simliklar turlarining 20% qismi – endemik turlardir (boshqa hech qayerda uchramaydi); ularning ko'pchilik qismi tog'larda o'sadi. Dashtlar va sahrolarnig o'simlik olami asosan o'ziga xos butalardan tarkib topgan. Pasttekisliklarda daraxt, buta, o'tsimon o'simliklar kuchli rivojlangan. To'qaylar uchun qamish va qandim o'simliklari xosdir.

Tog' oldi tekisliklarining manazarlarida o'tlar o'sadi, daraxtlar yo'q, butalar asosan suv oqadigan joylarda uchraydi. Bu yerda piyozlilarning har xil turlari, lolalar, ravoch, safsargul o'sadi. Balandroq joylashgan tekisliklar – bu qora-qo'ng'ir tuproqlardagi quruq, turli o't o'simliklari o'sadigan dashtlardir. Toshli joylarda butalar ham o'sadi – bodom, kavrak, turli o'tlar.



O'SIMLIK OLAMI

Qir-adirlarda va past tog'li joylarda asosan qimmatbaho daraxt turi – zarafshon archasi o'sadi. Shuningdek bargli daraxtlar turlari ham keng tarqalgan: do'lana, chinor, jiyda, yovvoyi olma turlari, yong'oqlar, pista, qayin, terak, olcha turlari ham o'sadi. Past tog'li joylar butasimon o'simliklarga juda boy: archasimon butalar, na'matak, tavolga, yovvoyi uzum, zira juda mo'l. O'tlarning turlari ham juda xilma-xil: marmarak, zizifora, ravoch, shovul, lola va boshqa lolaguldoshlar, pskem piyozi (qimmatbaho dorivor o'simlik). O'rta baland tog'larda na'matak va boshqa butalar o'sadi. Baland tog'larda tuproqning faqat 30 % qismi o'simliklar bilan qoplangan. Bu yerda asosan tipchoq o'sadi.



HAYVONOT DUNYOSI

O'simlik olami kabi O'zbekiston Respublikasiinng hayvonot olami ham turli-tumandir. Bu yerda Osiyo hayvonlarining ko'pgina vakillari uchraydi. Ularning ichida: **sut emizuvchilar** (bo'ri, tikquloq tipratikon, tulki, qursoq, quyon, jayron, sayg'oq, yovvoyi cho'chqa, morxo'r, tog' qo'yi, bo'rsiq, toshli tulki, ayiq, qoplon, gornostay, Sibir tog' echkisi, Hind kalamushi, chiyabo'ri, Buxoro bug'usi, yumronqoziq, tovushqon), **sudralib yuruvchilar** (toshbaqa, gekkonlar, agama, qum iloni, o'qilon, O'rta Osiyo ko'zoynakli iloni, qalqontumshuq ilon, ola chipor ilon, Oloy ochiqko'zi), **Qushlar** (to'xtatuvaloq, qoraquyruq bulduruq, qarqunoq, balchiqqush, targ'ilqush, dasht sori, xo'jasavdogar, olato'g'anoq, moyqut, sichqonbosh, ovsyanka, kaptar, qora kalxat, oqbosh qumoy, burgut, Himolay ular qushi, boltayutar, mayna, olaqarg'a, tustovuq, kakku qushi, sariq qush, qorayaloq, qarg'a, qora qarg'a, janubiy bulbul, mo'ylovli , qamish ovsyankasi, ko'kqush), hasharotlar va boshqalar bor.

Suv havzalarida 70 ga yaqin turdagi **baliqlar** uchraydi: Amudaryo forel balig'i, cho'rtan baliq, sazan, kumush karas balig'i, laqqa baliq, sudak, okun, ilonbaliq, oddiy tolstolobik, oq amur balig'i.




2. HUDUDNI EKOLOGIK RAYONLASHTIRISH

Hududni ekologik rayonlashtirish. Ekologik vaziyatni baholash uchun Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi ilmiy tadqiqot institutlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududini ekologik rayonlashtirish metodologiyasi ishlab chiqilib, amalga oshirilgan.

Rayonlashtirish respublikasining ma'muriy-hududiy taqsimotiga asoslangan; rayonlashtiriladigan eng kichik hududiy birlik (takson) sifatida ma'muriy tuman, respublika yoki viloyatga bo'ysunuvchi shahar qabul qilingan.

Har bir taksonning ekologik vaziyati 18 ta ekologik indikator (mezon) bo'yicha baholanadi, ular hududlarning ekologik tanglik darajasi (ruxsat berilgan, kritik, favqulodda, ekologik falokat) bo'yicha an'anaviy taqsimoti bilan bir qatorda, balli baholarga ham ega bo'lib, o'rtacha solishtirma balli bahoni hisobga olgan holda xavfli va o'ta xavfli toifalarga bo'linadi.

2. HUDUDNI EKOLOGIK RAYONLASHTIRISH



2. HUDUDNI EKOLOGIK RAYONLASHTIRISH

Ekologik zonalar			Hududi, mln. Ga	Shu jumladan sug'orma dehqonchilik	Aholi, mln. kishi	Tuman va Shaxarlar soni
0	–	Ekologik vaziyati normal bol'gan	11,8	1,6	10,8	94
1	–	Ekologik vaziyati qaltis bol'gan	16,1	1,8	9,4	89
2	–	Ekologik vaziyati favqulotda bol'gan	12,9	0,7	2,8	33
3	–	Ekologik ofat holatida bol'gan	3,7	0,2	-	1
JAMI			44,5	4,3	23,0	217

2. HUDUDNI EKOLOGIK RAYONLASHTIRISH

Hududni ekologik tanglik darajasiga ko'ra rayonlashtirish (viloyatlar bo'yicha) quyidagicha amalga oshiriladi:

400 va undan ko'p-favqulodda tang

250-400 – kuchli tanglik

150-250 – o'rtacha tanglik,

120-150 – sust tanglik va 120 normal (tanglik yo'q).

Ekologik jihatdan eng og'ir ahvolda turgan hudud Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'lib, bu ekologik vaziyat favqulodda tang bo'lgan holda, ahvol yanada og'irlashmoqda.

Xorazm, Farg'ona va Navoiy viloyatlarida ekologik vaziyat kuchli tanglikda. Samarqand va Buxoro viloyatlaridagi ekologik vaziyatni o'rtacha tanglikda deb xarakterlash mumkin.

2. HUDUDNI EKOLOGIK RAYONLASHTIRISH

Surxondaryo, Toshkent, Sirdaryo va Andijon viloyatlaridagi ekologik vaziyat sust tanglikda. Namangan, Jizzax, Qashqadaryo viloyatlari va Toshkent shahridagi ahvol esa me'yoriy sharoitdadir.

Ta'kidlab o'tish joizki, hududlarni ekologik tanglik darajasi bo'yicha yuqoridagidek saralashda nisbatan «me'yoriy» viloyatlarda ham favqulodda og'ir holatlar kuzatilayotgan «qaynoq nuqtalar» bo'lishi ham mumkin. Masalan, **Surxondaryo viloyatidagi Termiz va Muzrabod tumanlari, Buxoro viloyatidagi G'ijduvon, Toshkent viloyatida esa Yangiyo'l** shaharlari favqulodda ekologik vaziyat zonasiga kiradilar.

Rayonlashtirish natijalaridan ekologik ofat hududlarida yashovchi aholini ijtimoiy himoyalashga qaratilgan qonunchilikni ishlab chiqishda, Shuningdek atrof-muhitni muhofaza qilishning hamda O'zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanishini ekologik ta'minlashning Milliy va hududiy rejalarini ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

- 
1. Toshkent
 2. Andijon
 3. Namangan
 4. Farg'ona
 5. Sirdaryo
 6. Jizzax
 7. Samarqand
 8. Buxoro
 9. Navoiy
 10. Qashqadaryo
 11. Surxondaryo
 12. Xorazm
- Qoraqalpog'iston Respublikasi

Topshiriq

Viloyatlar kesimida tabiiy sharoitlarni tasniflab bering

	Toshkent	Andijon	Namangan	Farg'ona	Sirdaryo	Jizzax	Samarqand	Buxoro	Navoi
Iqlim									
Flora									
Fauna									
Suv resurslari									
Shamol									
Tabiiy boyliklar									

Savollar

1. Tabiiy sharoit deganda nimani tushunasiz?
2. Ekovaziyatlarga tavsif bering.
3. O'zbekistondagi yirik ko'llar haqida ma'lumot bering.
4. O'zbekistonning tuproqlari haqida ma'lumot bering.



TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ
XO'JALIGINI MEXANIZATSIYALASH
MUHANDISLARI INSTITUTI



E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!